

TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARINI EKSPORT QILISHDA YUZAGA KELADIGAN MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI

Alisherov Muxammadali Otabek o'g'li

Namangan davlat texnika universiteti magistranti,

+998 94 277 20 76, Alisherov2076@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi to'qimachilik sanoatining jahon bozoridagi o'rni, so'nggi yillardagi eksport dinamikasi va ushbu jarayonda yuzaga kelayotgan strategik muammolar tahlil qilinadi. So'nggi yillarda tarmoqda xomashyo eksportidan tayyor mahsulot eksportiga o'tish tendensiyasi kuzatilayotgan bo'lsa-da, logistika xarajatlari, xalqaro ekologik sertifikatlashtirish (ESG) va brending sohasida muammolar saqlanib qolmoqda. Maqolada mazkur muammolarni bartaraf etishga qaratilgan innovatsion va tarkibiy yechimlar ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: to'qimachilik maxsulotlari, eksport, logistika diversifikatsiyasi, paxta-to'qimachilik klasterlari, ESG standartlari, elektron tijorat Yevropa Ittifoqi bozori.

ABSTRACT: This article analyzes the position of the textile industry of the Republic of Uzbekistan in the global market, its export dynamics for 2024–2026, and the strategic challenges emerging in this process. Although a clear trend toward shifting from raw material exports to value-added product exports has been observed in the sector in recent years, persistent issues remain in logistics costs, international environmental certification (ESG), and branding. The article provides a scientifically grounded framework for innovative and structural solutions aimed at eliminating these challenges.

Keywords: Keywords: Textile products, export, logistics diversification, cotton-textile clusters, ESG standards, e-commerce, European Union market.

Аннотация: В данной статье анализируются место текстильной промышленности Республики Узбекистан на мировом рынке, динамика экспорта за 2024–2026 годы, а также стратегические проблемы, возникающие в данном процессе. Несмотря на то, что в последние годы в отрасли наблюдается тенденция перехода от экспорта сырья к экспорту готовой продукции с высокой добавленной стоимостью, проблемы в сфере логистических затрат, международной экологической сертификации (ESG) и брендинга все еще сохраняются. В статье научно обоснованы инновационные и структурные решения, направленные на устранение указанных проблем.

Ключевые слова: *Текстильная продукция, экспорт, диверсификация логистики, хлопково-текстильные кластеры, стандарты ESG, электронная коммерция, рынок Европейского Союза.*

KIRISH

Bugungi kunda to‘qimachilik sanoati O‘zbekiston iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan sohalaridan biridir. Davlatimiz rahbariyati tomonidan so‘nggi yillarda qabul qilingan qarorlar tufayli mamlakatimiz shunchaki paxta xomashyosi sotuvchi davlatdan tayyor mahsulot eksport qiluvchi davlatga aylandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2025-yil 22-sentabrdagi “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida islohotlarni jadallashtirish va eksport salohiyatini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida ishlab chiqarish hajmi 9 foizga o‘shirishni ta‘minlash va 146 trillion so‘mga yetkazish, sohaga 2 milliard AQSH dollari miqdorida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, eksportni 3,3 milliard AQSH dollariga yetkazish, ushbu sohada 50 mingta ish o‘rinlarini yaratish belgilab o‘tilgan edi. Shu islohot natijasi o‘laroq, 2025-yil yakuni va 2026-yil boshida O‘zbekiston to‘qimachilik mahsulotlari eksporti 2,5 milliard dollardan oshdi.¹ Hozirda mahsulotlarimiz dunyoning 70 dan ortiq davlatiga yetkazib berilmoqda. Biroq, jahon bozorida raqobat kuchayishi sababli eksportchilarimiz bir qator jiddiy muammolarga duch kelishmoqda. Ushbu maqolada aynan shu muammolar va ularni hal qilish yo‘llari ko‘rib chiqiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida ma'lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va tizimlashtirish uchun quyidagi ilmiy metodlar majmuasidan foydalanildi:

- **Tizimli va tarkibiy-funksional tahlil:** Eksport zanjiridagi logistika, sertifikatlashtirish va ishlab chiqarish bo‘g‘inlari bir butun tizim sifatida o‘rganildi.
- **Statistik tahlil:** 2024–2026-yillardagi Davlat Statistika agentligi va "O‘zbekiston to‘qimachilik sanoati" uyushmasi ma'lumotlari asosida eksport dinamikasi va tayyor mahsulot ulushining o‘shirish tendensiyalari tahlil qilindi.
- **SWOT va PEST tahlil metodlari:** Tashqi bozorlarga (xususan, YeI va AQSH) chiqishda yuzaga kelayotgan geosiyosiy, iqtisodiy (PEST) va korxonalarining ichki-tashqi imkoniyatlari (SWOT) baholandi.

ASOSIY QISM / TAHLIL VA NATIJALAR

¹ 2025–2026-yillarda to‘qimachilik sanoati mahsulotlarining eksport ko‘rsatkichlari" hisoboti, 2026-yil 30-aprel.
Elektron resurs: gov.uz/oz/adli/sections/view/159870

Oxirgi ikki yilda eksport tarkibida katta ijobiy o'zgarish yuz berdi. Ilgari eksportimizning asosiy qismini ip-kalava (polufabrikot) tashkil etgan bo'lsa, 2025–2026-yillar ma'lumotlariga ko'ra, jami to'qimachilik eksportining **51,4 foizidan ortig'ini** tayyor to'qimachilik buyumlari va tikuv-trikotaj mahsulotlari tashkil qilmoqda, ip-kalava ulushi esa 27-31 foizgacha kamaygan².

Paxta-to'qimachilik klasterlarining tashkil etilishi paxtani daladan tayyor kiyimgacha bo'lgan zanjirini korxonada hal qilish imkonini berdi. Bu esa eksportdan tushadigan daromadni bir necha barobar oshirdi.

Sohadagi ijobiy o'zgarishlarga qaramay, xalqaro bozorga chiqishda quyidagi to'siqlar saqlanib qolmoqda:

- **Logistika va transportning qimmatligi:** O'zbekiston dengiz yo'llaridan uzoqda joylashgan. Shu sababli, mahsulotlarimizni Yevropa yoki Amerikaga poyezd va yuk mashinalarida tashish juda qimmatga tushmoqda. Transport xarajatlari mahsulot tannarxining 15-20 foizini tashkil qiladi.
- **Xalqaro sertifikatlarning yetishmasligi:** Yevropa Ittifoqi (YeI) bozorlariga GSP+ tizimi doirasida bojsiz kirish imkoniyati bo'lsada, ko'plab korxonalarda Better Work, BCI (Better Cotton Initiative), OEKO-TEX va Organic EU kabi ekologik va ijtimoiy sertifikatlar mavjud emas.
- **Sintetik matolarning kamligi:** Dunyo xaridorlarining 60% dan ortig'i sintetik va aralash matolardan (sport kiyimlari, kurtkalar) tikilgan kiyimlarni sotib oladi. Bizda esa asosan 100% paxtadan mahsulot tayyorlanadi.
- **Taniqli brendlarning yo'qligi:** Bizning fabrikalar asosan chet el brendlarning (masalan, Zara, Mango va b.) buyurtmalarini arzon narxda tikib beradi. O'zimizning xalqaro miqyosdagi mashhur brendlarimiz mavjud emas.

MUAMMOLARNING ILMIY-AMALIY YECHIMLAR

Ushbu muammolarni hal qilish va kelgusi yillarda eksport rejalarini bajarish uchun quyidagi amaliy choralar taklif etiladi:

Transport xarajatlarini kamaytirish: Davlat eksportchilarga transport xarajatlarining 50 foizigacha bo'lgan qismini qoplab bermoqda. Endilikda yangi transport yo'llarini (masalan, Xitoy-Qirg'iziston-O'zbekiston temir yo'li) tezroq ishga tushirish lozim.

Sertifikatlashtirishni jadallashtirish: Mahalliy korxonalariga xalqaro ESG va ekologik standartlarni joriy etish xarajatlarini davlat tomonidan subsidiyalash tizimini

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. "O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo aylanmasi" tahliliy ma'ruzasi (2025-yil yakunlari hamda 2026-yil yanvar-fevral oylari hisoboti) Gazeta.uz/ / Invexi

kengaytirish kerak. Sertifikati bor korxonagina Yevropaga qimmat narxda kiyim sota oladi.

Sintetik tola ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish: Mamlakatda sun'iy va kimyoviy tola ishlab chiqaruvchi yirik zavodlarni qurish (investitsiyalar hisobiga) va paxtaga sintetikani aralashtirib mato to'qishni o'rganish zarur.

Elektron tijoratni rivojlantirish: Mahalliy korxonalar mahsulotlarini an'anaviy bozorlardan tashqari Amazon, Alibaba va Wildberries kabi global internet platformalari orqali to'g'ridan-to'g'ri xorijiy xaridorga sotish tizimini (B2C) yo'lga qo'yish kerak.

Muammolarning amaliy yechimi sifatida hukumat va tarmoq darajasida qabul qilingan so'nggi chora-tadbirlar va ilmiy tavsiyalar asosida muammolarning quyidagi yechimlari taklif etiladi:

№	Mavjud Muammo	Ilmiy-Amaliy Yechim Mexanizmi	Joriy Etilgan Davlat Dasturi (2025-2026)
1	Yuqori transport xarajatlari	Muqobil koridorlarni (Xitoy-Qirg'iziston-O'zbekiston temir yo'li) rivojlantirish.	Paxta va sun'iy tolani import qilish hamda tayyor mahsulot eksportida transport xarajatlarini 50% gacha kompensatsiya qilish.
2	ESG va Xalqaro sertifikatlar tanqisligi	Korxonalarni majburiy ekologik va ijtimoiy auditdan o'tkazish standartlarini joriy etish.	60 ta yirik to'qimachilik korxonasida Better Work va BCI dasturlarini davlat ko'magida joriy etish
3	Sintetik tolalar yetishmovchiligi	Xorijiy investitsiyalar hisobiga kimyoviy tolalar klasterlarini yaratish.	2,2 mlrd dollar investitsiya hisobiga 207 ming tonna sintetik va aralash ip ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish
4	Global bozorga to'g'ridan-to'g'ri chiqolmaslik	"Made in Uzbekistan" brendini raqamli platformalar (Amazon, Alibaba) orqali diversifikatsiya qilish	B2B formatidagi TextileExpo Uzbekistan kabi ko'rgazmalarni kengaytirish va raqamli savdoga 2 mln dollar ajratish

XULOSA

O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatining eksport salohiyatini oshirish faqatgina ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirish bilan cheklanmasligi kerak. Eksport geografiyasini an'anaviy MDH bozorlaridan G‘arbiy Yevropa va Shimoliy Amerika davlatlariga diversifikatsiya qilish uchun sanoatning ekologik barqarorligi (ESG) va raqamli savdo (E-commerce) tizimini rivojlantirish lozim. 2026-yilda davlat tomonidan taqdim etilayotgan moliyaviy paketlar va xalqaro brendlar nufuzining (sourcing) oshishi mamlakatni global to‘qimachilik zanjirining asosiy bo‘g‘iniga aylantirish uchun mustahkam poydevor yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 12-yanvardagi "Mahalliy yengil sanoat korxonalarining xalqaro ta'minot zanjirlarida ishtirokini kengaytirish..." to‘g‘risidagi PF-4-sonli Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 22-sentabrdagi "To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida islohotlarni jadallashtirish va eksport salohiyatini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Milliy statistika qo‘mitasi (Statistika agentligi). O‘zbekiston Respublikasining tashqi savdo aylanmasi to‘g‘risidagi press-reviz hisobotlari (2025-yil yakunlari). – Toshkent, 2026. – B. 4-6
4. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. 2025–2026-yillarda to‘qimachilik sanoati mahsulotlarining eksport ko‘rsatkichlari tahlili // Rasmiy tahliliy materiallar, 2026. – gov.uz/oz/adli/sections/view/159870.
5. TextileExpo Uzbekistan International Materials and Reports (2025-2026).